

XARAKTER-XUSUSIYAT VA HOLAT BILDIRUVCHI SIFATLARNING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Mayliyeva Gulmira Bahramovna,
UrDU, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqola sifatlarning semantik guruhlarini, xususan xarakter-xususiyat va holat bildiruvchi sifatlarning funksional-semantik xususiyatlarini tahlil qiladi. Xarakter-xususiyat sifatlari insonning axloqiy, intellektual, ijtimoiy, shuningdek, predmet va mavjudotlarning xarakter belgilarini ifodalash uchun qo'llaniladi. Holat bildiruvchi sifatlar esa narsa va mavjudotning turli holatlarini aks ettiradi. Sifatlar sodda, qo'shma, juft va takror turlarga bo'linadi va sintaktik vazifalari turlicha bo'lishi mumkin: aniqlovchi, kesim, hol va boshqalar. Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillarida sifatlarning qo'llanilishi va yasalish usullarini taqqoslab, ularning tilshunoslikdagi o'rni haqida xulosalar beradi.

Kalit so'zlar: sifat, semantik guruhlar, xarakter-xususiyat, holatni ifodalovchi sifatlar, sifatning funksional-semantik xususiyatlari, tub, yasama, qo'shma, juft, takror sifatlar.

Annotation:

This article analyzes the semantic groups of adjectives, particularly the functional-semantic features of adjectives denoting character traits and states. Character-trait adjectives are used to describe the moral, intellectual, and social qualities of a person as well as the features of objects and beings. State-expressing adjectives reflect various states of objects and entities. Adjectives are categorized as simple, compound, paired, and reduplicative, and their syntactic roles include qualifiers, predicates, and adverbials. The article compares the formation and usage of adjectives in Uzbek and English, drawing conclusions about their significance in linguistics.

Keywords: adjective, semantic groups, character traits, adjectives expressing states, functional-semantic features of adjectives, root, derived, compound, paired, and reduplicative adjectives.

Аннотация:

В данной статье анализируются семантические группы прилагательных, в частности, функционально-семантические особенности прилагательных, обозначающих черты характера и состояния. Прилагательные, характеризующие черты характера, описывают моральные, интеллектуальные и социальные качества человека, а также особенности предметов и существ. Прилагательные, выражающие состояние, передают различные состояния объектов и существ. Прилагательные классифицируются на простые, составные, парные и редупликативные, и их синтаксические функции включают определения, сказуемые и обстоятельства. В статье проводится сравнение образования и употребления прилагательных в узбекском и английском языках, делаются выводы об их значении в лингвистике.

Ключевые слова: прилагательное, семантические группы, черты характера, прилагательные, выражающие состояния, функционально-семантические особенности прилагательных, корневые, производные, составные, парные и редупликативные прилагательные.

Sifat asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiradi. Belgi tushunchasi o‘z ichiga xarakter-xususiyat, rang-tus, maza-ta’m, shakl, vazn-o’lchov kabilarni qamrab oladi. Bular sifatning ma’noviy guruhlari hisoblanib, ular ham ma’lum bir semantik va grammatik xususiyatlarga asoslanadi.

Shunday sifatning ma’noviy guruhlaridan biri xususiyat sifatlaridir. Xarakter-xususiyat sifatlari insonning turli-xil belgi xususiyatlarini, ya’ni uning axloqiy, intellektual, ijtimoiy belgilarini, shaxsiy xarakterlarini, narsa va mayjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko‘p qo’llanadigan so‘zlardir. Bunday sifatlar ijobiy va salbiy yoki neytral holatda bo‘lishi mumkin: a)Insonning xarakter-xususiyatiga xos ijobiy sifatlar:muloyim, odobli, chapdast, chaqqon, abjir, ziyrak, mo‘min, sodiq, mohir,pok, sipo, o‘ktam, asl, quvonch,ozoda, sof, yaxshi, dadil, xushmuomala, rostgo‘y, mehribon va boshqalar. b) kishilarga xos salbiy xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlar ko‘pincha ijobiy xususiyatni bildiruvchi sifatlarga antonim bo‘ladi:zolim, nokas, toshbag‘ir, shafqatsiz, quv,ayyor, muttaham,g‘ayir, tannoz, takabbur,o‘jar, xudbin va boshqalar.

Kishilarga xos salbiy va ijobiy xususiyatlarining gap-so‘zini, o‘y-niyatini yoki ta`na a`zolarini sifatlash orqali ham bildiriladi.

Xarakter-xususiyat sifatlarining yana shundaylari borki, ularda ijobiy va salbiylik yaqqol ko‘rinib turmaydi. Matndan ularning ma’nosini anglab olish mumkin. Masalan: dovdir, loqayd, sho‘x, mahmadona, sinchkov, mag‘rur, indamas, o‘jar,

shaddod, to‘pori va boshqalar. Indamas odam birikmasida indamas sifati salbiy munosabat ifodasi uchun qo‘llangan bo‘lsa, “ U tabiatan indamas, odamovi bo‘lsa ham, ko‘pgina zulm va shafqatsizliklarga indamay qo‘ya qolardi” misolida esa ijobiy semasini namoyon qilgan.

Predmet (narsa, hayvon, jonivor) holati, hodisa va shu kabilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo‘llanuvchi sifatlar: fayzli, dabdabali, tashvishli, yovvoyi, sun`iy, tabiiy, qimmat, arzon va boshqalar. Kishi va predmet xususiyatlari uchun birdek qo‘llanaveradigan sifatlar: chiroyli, xunuk, katta, zo‘r, chidamlı va hokazolar.

Xususiyat bildiruvchi sifatlar tuzilishi jihatidan sodda, qo‘shma, juft va takror sifatlarga bo‘linadi. Sodda sifatlar tub va yasama so‘zlarga bo‘linadi.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi tub sifatlar: yengil, yomon, mayda, baland, zo‘r.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi yasama sifatlar: firibgar, aqli, kuchli, yeishli, ichishli, aloqador, aybdor, manfaatdor, bedin, beg‘ubor , noumid, noinsof, noo‘rin; ommaviy, qozoqi, qishloqi, xalqparvar, insonparvar, vatanparvar, badaxloq, badhazm, olamshumul, jahonshumul, gapdon, bilimdon, dilkash, hazilkash;

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi qo‘shma sifatlar: qoyilmaqom, oliyjanob, dilorom, dilozor, kafangado, otashnafas, xomkalla, sho‘rpeshona, kaltafahm, shirinsuxan, sho‘rtumshuq, balandparvoz.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi juft sifatlar: aniq-ravshan, aql-hushli, pishiqli-puxta, telba-teskari, mo‘min-qobil, ezma-churuk, tepsa-tebranmas, dali-g‘uli, bo‘sh-bayov, ochiq-oydin, toparman-tutarman, yengil-yelpi.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi takror sifatlar: liq-liq, cho‘ziq-cho‘ziq, ko‘p-ko‘p.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlarning sintaksisda sifatlovchi-aniqlovchi, otkesim, hol, shuningdek, otlashganda qaratqich-aniqlovchi,to‘ldiruvchi, undalma bo‘lib ishlatiladi.

Sifatlovchi-aniqlovchi bo‘lib keladi: Toparmon-tutarmon yigit edi.

Sifatlar otlashsa, otning sintaktik vazifasini bajaradi:

Ega bo‘lib keladi: Boylar ham shu yerda yashaydi va ishlaydi.

Qaratqich-aniqlovchi bo‘lib keladi: So‘qirning tayog‘i tushib ketdi.

To‘ldiruvchi bo‘lib keladi: Betayinlikda undan ham o‘tadigani yo‘q.

Holat bildiruvchi sifatlar: O‘zbek va ingliz tillarida Holat bildiruvchi sifat narsa - mavjudotning holat yoki vaziyatini turg‘un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifatlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takror sifatlarga bo‘linadi. Holatni bildiruvchi tub sifatlar: hot, big, ready, tired, lazy, yopiq, issiq, iliq, kir, ko‘hna, obod, ozod, ozoda, osoyishta, osuda, toza, tarang, tashna, to‘q,

farovon, xom, xarob, xasta, xafa, xijil, xomush, xor, xursand, shalabbo, eski, qaram, qizg‘in.

Holat bildiruvchi yasama sifatlar ingliz tilida quyidagi qo‘sishimchalar orqali yasaladi: -ful, -ing, ible, ous, -able, -ive, -some, -ent, -y, -ed; careful, boring, impossible, cautious, breakable, expensive, handsome, inconvenient, easy, concerned,nasty, fragile, open va boshqalar.

Holat bildiruvchi yasama sifatlar o‘zbek tilida quyidagi qo‘sishimchalar orqali yasaladi: -bar, -li, -dor, -ser, -be , -k,-q, g‘,-ik, - iq,- uq, -kin, - qin - g‘in, -kun, - g‘un... ; odobli, do‘ppili, dabdabali, gavdali, gulli, to‘shdor, xabardor, azador, guldor, sersoqol, sersuv, sersalom, sersomon, bemajol, bexabar, boxabar bedor, besaramjon, bearmon, chirik, o‘ksik, quruq, yorug‘, tirik, egik, yopiq, ochiq, buzuq, tiniq, tushkun, turg‘un, ozg‘in, so‘lg‘in, jo‘sinqin, horg‘in, g‘amgin, qarimsiq, noqulay, navqiron, noma'lum, noto‘g‘ri, sharros, gulduros, motamsaro, ishsiz, darveshnamo, olimnamo, tentaknamo, toliqqan, tiniq, jirkanch, dardchil, epchil, xayolparast, oqsoq, porloq, quvnoq, loyqa, yopishqoq,

Ingliz tilida sifatlar simple-oddiy, derive-yasama va compound-qo‘shma sifat turlariga ajratiladi. Holat bildiruvchi oddiy sifatlar: young, new, fresh, old, big, slow, fast, sad va hk.

Holat bildiruvchi yasama sifatlar: careful, wooden, rainy, tired, comfortable, possible, bluish, tremendous, crucial, fruitful, complicated.

Holat bildiruvchi qo‘shma sifatlar:well-known, much-praised, man-made, well-informed, self-centred, self-absorbed, self-assured, well behaved.

O‘zbek tilida esa holat bildiruvchi qo‘shma sifatlar: xushomadgo‘y, beparvo, devsifat, devqomat, kafangado, sheryurak, ofatijon, bodomqovoq, og‘iroyoq, shikastahol, boshqorong‘i, yoqavayron, olazarak, tepakal, xonavayron, dilxasta, kamgap, kansuxan, tezpisshar, kechpisshar, qirqyamoq, xomtalash, sohibjamol.

Holat bildiruvchi juft sifatlar: shosha-pisha, alag‘da-jalag‘da, apoq-chapoq, issiqsovuuq, mast-alast, hozir-unozir, eski-tuski, chala-chulpa,xom-pishiq, saramjon-sarishta, och-yalang‘och, soya-salqin, xor-zor, ilma-teshik, tappa-tuzuk, xom-xatala, entak-tentak, qari-quri, yamoq-yasqoq, harom-harish, aloq-chaloq, poyintar-soyintar, uvali-juvali, o‘poq-so‘poq, ilang-bilang, boy-badavlat, och-nahor, pishiq-puxta, sarson-sargardon, sog‘-salomat, telba-teskari, yakka-yolg‘iz, g‘arib-benavo, vayronu obod, chappa-rosta, quyuq-suyuq, kuydi-pishdi(fe’ldan ko‘chgan), och-yalong‘och, soya-salqin, tinch-totuv.

Holat bildiruvchi takror sifatlar:burda-burda, yo‘l-yo‘l(otdan ko‘chgan), biq-biq, tip-tiniq.

Holat bildiruvchi sifatlarning sintaktik vazifasi:

- a) kesim bo‘lib keladi: Uyining tomi eski va teshik
- b) ravish (tarz, vaziyat) holi bo‘lib keladi: Kerri bu gapni eshitdi-da, orqasiga beso‘naqayroq tislanib, tashqariga chiqdi.(T.Drayzer)
- c) aniqlovchi bilan: Bunda odamlar ko‘p edi chog‘i: yaxshi kiyangan, yoshlari qirq va undan balanda bo‘lgan erkaklar mis to‘sinq ortida nimalar haqidadir gurunglashishardi. (T.Drayzer)

Xulosa:

Yuqoridagilar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, holat bildiruvchi sifatlar narsa yoki mavjudotni turli holatini juft, takror, sodda, qo‘shma ko‘rinishlarda ifodalab, nutqimizda faol qo‘llanadi. Maqolada sifatlarning semantik guruhlari, ayniqsa xarakter-xususiyat va holatni ifodalovchi sifatlarning o‘ziga xos jihatlari batafsil yoritilgan. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar inson va predmetlarning belgi va xususiyatlarini ifodalashda, holat bildiruvchi sifatlar esa turli holatlarni aks ettirishda faol ishlatiladi. Ushbu sifatlarning sodda, yasama, qo‘shma, juft va takror turlari o‘zbek va ingliz tillarida tahlil qilinib, ularning yasalishi, grammatik hamda semantik xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Sifatlarning sintaktik vazifalari ham keng ko‘lamda tahlil qilinib, ular aniqlovchi, kesim, hol kabi rol o‘ynashi qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdug‘ani Shukurov – Sifatlarning funksional-semantik xususiyatlari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
2. H.R. Mahkamov – O‘zbek tilining morfologik tahlili. Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2016.
3. S. Karimov – O‘zbek tilining leksikologiyasi va semantikasiga kirish. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2020.
4. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. – A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman, 1985.
5. Crystal, D. – The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
6. E.M. Shoimov – Holatlar semantikasi va ularning tahlili. Toshkent: Yangi asr avlod, 2019.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildlik). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
8. Longman Dictionary of Contemporary English – Fourth Edition. London: Pearson Education, 2003.
9. Turdimov, Sh., & To‘xtayev, S. – Ingliz va o‘zbek tilida sifatlarning taqqosiy tahlili. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.